

Globalashuv Davrida Huquqiy Munosabat Va Huquqiy Muomalaning O'Rni

Nadira Julianovna Kunisheva


Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Angren Universiteti

Annotatsiya: maqolada globalashuv davrida huquqiy munosabat va huquqiy muomalaning o'rni haqida gap borgan,

Kalit so'zlar: madaniyat, munosabat, yangi taraqqiyot, falsafa, ijtimoiy, sivilizatsiya, globalizm, harakatlar strategiyasi, yoshlar.

Global rivojlanish davrida madaniy munosbatlar masalasi falsafiy tadqiqotlar tizimida muhim o'rin egallamoqda. Jamiat taraqqiyotida va inson kamolotida tutadigan madaniyat va madaniy munosobatlar, jahondagi yetakchi mamlakatlar va rivojlanayotgan davlatlar taraqqiyotida o'ziga xos o'rin egallashi jamiatshunoslar tamonidan e'tirof etilgan, chunki bu jarayon hozirgi zamon sivilizatsiyasi va mamlakatlarning barqaror rivojlanish sharoitiga o'tishi jarayoni, ijtimoiy hayot rivojidagi ustivor yo'nalişlar bo'lgan "madaniyat", "sivilizatsiya" tushunchalarining inson faoliyatidagi o'rni bilan chambarchas bog'liqdir. Jahondagi taraqiyot bosqichida madaniy jarayonlar murakkabligi bilan xarakterlanadi. Ushbu jarayon bir tomondan aloqa kommunikatsiyalarining rivoji, ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga uning umimiy ta'sir ko'rsatib, mavjud traditsion madaniy munosbatlarning transformatsiyasiga olib kelmoqda va jahon madaniyati integratsiyasini kuchaytirdi, bunday holat madaniy munosobatlarning gumanistik missiyasida ko'zga tashlandi. Bu jarayon o'z navbatida ob'ektiv suratda global ong va global tafakkurning shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birgalikda globalashuv sharoitida milliy madaniyatlarning saqlanishi muhim ahamiyat kasb etadi, mamlakatlar taraqqiyotida milliy madaniyatlar yanada ravnaqini ta'minlash zaruriyati masalasini ilgari suradi. Milliy madanyatlarning saqlanishi, tarixiylik, etnomadaniyatlarni saqlashdan tashqari, uning akseologik ahamiyatini belgilaydi, shuningdek, globalashuv sharoitida inson manfaatlari va huquqini himoya qilish zaruriyati bidan xarakterlanadi. Shu munosobat bilan ta'kidlash lozimki, milliy madaniyat shaxsning atrof muhitga, o'zining ma'naviy dunyosini anglashida ifodalanadi, shu bilan birgalikda inson boshqa madaniyatlar mazmunini ham inkor qilmaydi. Globalizm sharoitida madaniyatlarni unifikatsiya qilish natijasida betakror madaniy tizimlar barham topishi mumkin. Qadriyatlar, ideallar turfaligi insoniyatning axborot, ma'naviy boyligi bilan solishtiriladi. Bunday vaziyatdan tashvishga tushgan YuNESKO milliy madaniyatlar rivoji, taraqqiyotini qo'llab quvatlashga bag'ishlangan qator deklaratsiyalar va dasturlarni qabul qildi. Shunday qilib, jahon madaniyatini idagi turfa xilma-xillikni aqlanishi, hozirgi globalashuv, axbort xuruji kuchaygan davrda muhim ilmiy nazariy va ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan masalaga aylandi. Bunday sharoitda turli madaniyatlarning islohatlar ko'lamidagi o'rniga e'tibor berish, uning inson ma'naviy



dunyosini shakllantirishdagi o‘rnini anglash ularning jamiyatda islohatlarga uyg‘unligini ta’minlaydi va fuqoralik jamiyatidagi o‘rnini belgilaydi.

O‘zbekistonning yangi rivojlanish davrida milliy madaniyatimizning ravnaqiga, madaniy munosobatlarning kengayishiga o‘tkazilayotgan islohatlarning muhim bo‘lagi sifatida e’tibor berildi. Harakatlar strategiyasida madaniyatning inson tarbiyasi va islohatlar ko‘lamini ta’minlashdagi o‘rni belgilangan.


Innovatsion madaniy munosobatlarning islohatlar tizimidagi, jamiyat taraqqiyotidagi, milltlararo bag‘rikenglikni shakllantirishdagi o‘rnining ba’zi jihatlari faylasuf olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu mavzuga aloqador bo‘lgan ya’ni, madaniyat falsafasi, madaniyat tarixi va nazariyasi nuqtai nazaridan, ilmiy falsafiy muammo sifatida xorijdagi faylasuflar tomonidan ham tadqiq etilgan. [2. 29-bet.] Axborot madaniyati, ekologik madaniyat va barqaror taraqqiyot madaniyatini shakllantirish masalalariga boshqalarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. O‘zbekistonda mustaqillik davrida faylasuflar tomonidan ushbu mavzuning ba’zi jihatlari tadqiq etilgan. Yuqorida nomlari tilga olingan ilmiy tadqiqot ishlari va falsafiy, madaniyatshunoslik yo‘nalishidagi ishlarning o‘rganilishi ko‘rsatadiki, yangi rivojlanish davrida madaniy munosobatlarning ijtemoiy taraqqiyotdagi o‘rni muammosi O‘zbekistonlik faylasuf olimlar tomonidan yetarlicha darajada o‘rganilmagan. Shu munosbat bilan ta’kidlash lozimki, demokratik islohatlar kesimida milliy qadriyatlar rivojlanishining o‘ziga xos jihatlari, ularni saqlashning, rivojlantirishning nazariy, metodologik, amaliy ahamiyatini falsafiy jihatdan asoslash, uning yangi davrga xos bo‘lgan xususiyatlarini tadqiq qilish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Yangi rivojlanish davrida milliy madaniyat, madaniy munosobatlarning umumiyligi ma’naviy yuksalishdagi o‘rnini anglash, uning gumanistik xarakteri, shu bilan birgalikda jahondagi madaniy jarayonlarga bevosita bog‘liqligi, ya’ni xalqlar orasidgi do’stlikni mustahkamlashdagi, ularning global dunyoda o‘zaro hamkorlik asosida yashashlarini, rivojlanishi, umumjahon taraqqiyotiga daxldorligini ta’minlovchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ta’kidlash lozimki, hozirgi davrda madaniy munosobatlar, ya’ni turfa madaniyatlar o‘zaro aloqasini etika va estetika jihatidan tushinish, ularning islohatlardagi o‘rnini anglash, ushbu jarayon insonning, mutaxassislar shakllanish jarayoni, bilan bog‘liqligini ilmiy asoslash dolzarb masaladir. [3.] Madaniy munosobatlar uyg‘unlashish holati, yoshlarga oid davlat siyosatida, tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarining, shaxs ijtimoiy imkoniyatlarining ma’naviy va huquqiy qadiyatlarda namoyon bo‘lishidir.

Ta’kidlash lozimki, falsafiy tadqiqotlar tizimda yangi rivojlanish davriga xos bo‘lgan madaniy aloqalar, munosobatlar mazmuni, rivojlanish xususiyatlarini mustaqil o‘rganish amaliy ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion madaniy munosobatlarning mazmuni diniy bag‘rikenglik, millatlararo munosobatlardagi totuvlikni saqlash zaruriyati va ularning o‘zaro aloqadorligiga bevosita bog‘liq.

Yangi taraqqiyot bosqichidagi innovatsion madaniy munosobatlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning barqaror rivojlanishga ta’siri, milliy munosobatlardagi o‘rnining falsafiy tahlili ijtimoiy sohada o‘tkazilayotgan islohatlarning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Yuqoridagi maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar yechimiga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiq.



- madaniyat fenomeni, uning genezisi va asosiy funksiyalari yangi rivojlanish davri nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilish;
- madaniy munosbatlar jarayonining tarixiy falsafiy jihatlarini mamlakatimizda milliy g‘oya ildizlari, ilmiy asoslarini yangidan o‘rganish, ochilmagan qirralariga oid materiallar bilan boyitish masalarini tadqiq qilish;
- milliy madaniyatimiz bag‘rikenglik xususiyatlarining yangi rivojlanish bosqichida qanday namoyon bo‘layotganligini falsafiy tahlili nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.
- madaniy munosabatlar uyg‘unligining barqaror taraqqiyot bilan o‘zaro aloqadorligini ilmiy-falsafiy jihatlarini asoslash ham hozirgi falsafa fanining muhim jabhalari qatoriga kiradi;
- madaniy munosabatlar sohasida, harakatlar strategiyasi talabalari asosida o‘tkazilyotgan siyosatning mazmuni va mohiyati tavsifi muhim tarbiyaviy, ma’rifiy ahamiyat kasb etadigan jarayondir;
- yangi rivojlanish davriga xos bo‘lgan milliy madaniyatlar aloqasini, ya’ni yaxshi qo‘schnichilik, madaniy hamkorlik masallarining falsafiy jihatlari ijtimoiy fanlardagi dolzarb muammolar sirasiga kiradi.


Innovatsion madaniy munosbatlar muommosining chuqur tahlilining nazariy metodologik asoslarini jamiyat rivojlanishiga yangicha falsafiy ilmiy yondoshuvlar, ya’ni tizimli, sinergetik, strukturalik usullari tayanilsa kutilgan natijaga erishish mumkin. Shuningdek, tadqiqot mavzusining fanlararo muammo ekanligini hisobga olib ijtimoiy falsafa, madaniyatshunoslik, barqaror taraqqiyot nazariyasi, jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichiga doir monografik tadqiqotlar, xalqaro va respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy amaliy konferensiyalar va boshqa manbalarga tayanish maqsadga muvofiqli. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, farmonlarini chuqur o‘rganish muhim manba hisoblanadi.

Innovatsion madaniy munosabatlarga doir vazifalarning tahliliga mustaqil yondoshuv natijasida madaniyat tushunchasi funksiyalarining demokratik islohatlar davrida madaniy munosabatlarni chuqurlashirishdagi o‘rni, turfa madaniyatlar o‘zaro aloqadorligi, shuningdek madaniyatning tarixiy jarayonlarni o‘zida aks ettirganligi, yangi rivojlanish bosqichiga xos bo‘lgan integratsiyalashuv jarayonining madaniy munosabatlarda aks ettirilish jarayoni falsafiy jihatdan tadqiq qilish nazariy va amaliy ahamiyatga molik ishdir.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, madaniy munosabatlar mavzusi tadqiqotining yangiligi, dolzarbliqi quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchidan, yangi rivojlanish davrida tarixiy madaniy taraqqiyotning sinergetikaga asoslangan zamonaviy modeli shakllanmoqda. Shu munosbat bilan madaniy munosabatlar demokratik taraqqiyot bosqichida o‘z o‘zini tashkil etuvchi tizim sifatida namoyon bo‘lib, unda iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi kuzatiladi, ijtimoiy madaniy hamkorlik yuksaladi. Innovatsion madaniy munosabatlar rivojlanishi o‘ziga xos omillar mazmunida namoyon bo‘ladi. Madaniy tarixiy taraqqiyot jarayonida moddiy va nomoddiy sub’ektlarning o‘zaro chambarchas bog‘liqligi ko‘zga tashlanadi.

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyatirivoji zaminida sodir bo‘layotgan, rivojlanayotgan, yuksalayotgan ma’naviy madaniyatning islohatlarga ijobiy ta’sirini milliy madaniyat yuksalishida, ushbu jarayonning sivilzatsion jarayonlarga ko‘rsatayotgan ta’sirida kuzatiladi, shu jarayon bilan mutonosiblikda milliy madaniyatning o‘ziga xosligi saqlanib qoladi. Yangi



tarixiy madaniy jarayonlar rivojlanish asoslarining konseptual falsafiy tahlili uning nazariyamaliy ahamiyatidan dalolat beradi. Shuning uchun ham yangi rivojlanish bosqichida inson faoliyatida va islohatlar mazmuni va ularning natijasida ozodlik, haqiqat, oshkoraliq, hamdardlik, inson manfaatlariga e'tibor, ijtimoiy yordam tushunchalari muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bu qadriyatlar islohatlar natijasida ijtimoiy hayotga, ko'pchilik insonlar faoliyatiga tobora chuqur singib bormoqda. Yangi rivojlanish davriga xos bo'lgan madaniy munosobatlar va tarixiy jarayonlar mazmuni fuqarolik jamiyatni rivoji xususiyatlariga, milliy va umiminsoniy qadriyatlariga tayanib tahlil qilish, unga ob'ektiv vogelik sifatida baho berish zaruriyati shakllandi.


Uchinchidan, globallashuv davrida sodir bo'lgan yangi rivojlanish davri iqtisodiy, huquqiy, madaniy, axborot maydonining birikmasidir. Ushbu jarayonda davlatlararo madaniy aloqalar kengaydi, axborot almashuvi yanada jadallahdi. Bunday sharoitda insoniyatning birlashuvi, odamlar orasidagi to'siqlarni bartaraf etish va komunikativ aloqalarning kengayishi sodir bo'ldi. Shu bilan birgalikda globallashuv antropologik krizisni vujudga keltiradi, shaxsnинг ijtimoiylashuvi va shakllanishini murakkablashtiradi, muayyan madaniyatlardagi o'ziga xoslikni yo'qotadi, natijada bunday sharoitda insonni turli madaniyatlar dunyosida yashashga olib keladi, o'zgaruvchan sharoitga moslashishga undaydi.

To'rtinchidan, yangi rivojlanish davrida shu bilan birgalikda shaxsning kommunikativ aloqalari kengayadi, uni yagona jamiyat zaminida yashash sari yetaklaydi. Bunday holat milliy madaniyatlar mazmunida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, o'zaro hamkorlik holatlarida ko'zga tashlanadi. Yangi rivojlanish davrida insonlar orasidagi aloqalar ularni boshqa madaniyatlar mazmuni bilan bevosita tanishish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Beshinchidan, hozirgi davrda, ommaviy madaniyat butun dunyoga va malakatimiz hududlariga tarqalishi jadallahdi, ya'ni madaniy munosobatarga g'arbiy madaniyat ta'sirini kuchayishi kuzatilmoqda. Ta'kidlash lozimki, bu jarayonning ishlab chiqarish madaniyatiga, tadbirkorlik va ta'lif jarayoniga ta'siri ham mavjud. Bunday sharoitda innovatsion milliy madaniy munosobatlar, ayniqsa barqaror rivojlanish konsepsiysi, ya'ni insonning ijtimoiy hayoti uchun zarur bo'lgan axborot texnologiyalari, biosferaning saqlanishi globallashuvning salbiy jihatlariga g'ov bo'lishi mumkin

References

1. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Xalq so'zi, 8 fevral 2017 yil
2. Mejuev V.M. Kak vozmojna filosofiya kulturi?// Ot filosofii jizni k filosofii kulturi. M., 2000. S. 22. Sm.: Materiali YUNESKO o kulture. - M., 1998.
3. Zakon Respubliki Uzbekistan «O gosudarstvennoy molodejnoy politike» ot 14.09.2016 g. № ZRU-406.
4. Mirziyoev SHavkat. Kriticheskii analiz, jestkaya dissiplina i personalnaya otvetstvennost doljni stat povsednevnoy normoy v deyatelnosti kajdogo rukovoditelya. Doklad na rasshirennom zasedanii Kabineta Ministrov, posvyuashennom itogam sotsialnoekonomiceskogo razvitiya strani v 2016 godu i vajneyshim prioritetnim napravleniyam ekonomiceskoy programmi na 2017 god. Tashkent, «Uzbekistan», 2017, str.94-95



-
5. Xakimov N.X., Abdumalikov A.A. Rivojlanishning yangi bosqichi sharoitida kadrlar tayyorlashni takomillashtirish. FarDu ilmiy xabarlar. 5 son , 2018 yil, 86- 88 betlar.